



ZAMONAVIY ELITOLOGIYADA TEXNO – DETERMINISTIK ASOSLARIDA SIYOSIY JARAYONLAR DINAMIKASI

Mardanov Sardorbek Zafar o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Siyosatshunoslik
yo'nalishi Siyosat22/A1 guruhi 3-kurs talabasi

Abstract: *This article provides information about the use of technological determinism in the field of modern elitology and the dynamic movements of political processes in it. In the process of getting acquainted with the article, scientifically based information is presented about the ideas of technological determinism, different views and approaches among the founders of these ideas, as well as the vectors of a number of political processes in this technological determinism.*

Key words: *Elitology, techno-determinism, meritocracy, political process, theories of post-industrial society, scientific-technical revolution, "Management revolution".*

Аннотация: *В данной статье представлена информация об использовании технологического детерминизма в сфере современной элитологии и динамического движения политических процессов в ней. В процессе ознакомления со статьей представлена научно обоснованная информация об идеях технологического детерминизма, различных взглядах и подходах среди основоположников этих идей, а также векторах ряда политических процессов в этом технологическом детерминизме.*

Ключевые слова: *Элитология, техно-детерминизм, меритократия, политический, политический процесс, теории постиндустриального общества, научно-техническая революция, "Революция менеджмента".*

Annotatsiya: *Mazkur maqola zamonaviy elitologiya sohasida texnologik determinizmning qo'llanilishi va unda siyosiy jarayonlarning dinamik harakatlari haqida ma'lumotlar beriladi. Maqola bilan tanishish jarayonida texnologik determinizm g'oyalari, bu g'oyalarning asoschilari o'rtasidagi turli xil qarashlar va yondashuvlar hamda bir qator siyosiy jarayonlarning bu texnologik determinizmdagi vektorlari haqida ilmiy asosga ega ma'lumotlar keltiriladi.*

Kalit so'zlar: *Elitologiya, texno-determinizm, meritokratiya, siyosiy jarayon, postindustrial jamiyat nazariyalari, ilmiy-texnikaviy inqilob, "menejerlar inqilobi(boshqaruv inqilobi)".*

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Siyosiy elitologiya fenomenologiyasiga to'xtalganda, elitologiya atamasi "elita haqidagi ilmiy fan" degan ma'noni bildiradi. Bu fan sohasiga klassik elitizm nazariyasi asoschilari V.Paretto, G.Moska, R.Mixelslar asos solishgan va o'zlarining elitologiya borasida Makiavellizm maktabini yaratishgan.¹ Zamonaviy XX – XXI asrlarga kelib siyosiy elitologiya borasida zamonaviy va ilmiy-texnikaviy o'zgarishlar kiritiladi. Xususan, elitologiyaning texno-deterministik asoslari ishlab chiqiladi. Bu borada siyosiy jarayonlar

¹ Ашмн.Г.К. Элитология: история, теория, современность: монография. Моск.гос. ин-междунар. Отношений (ун-т) МИД России, каф. Философии. – М.: МГИМО – Университет, 2010. – 93-94с.

ham o'z vektoridagi harakatlar yo'nalishini o'zgartiradi. Bir qator siyosiy institutlarning progressiv taraqqiyoti ularni elita rekrutlashuvi, transformatsiyasida, reproduksiyasida, sirkulyatsiyasida muhim markaziy pozitsiyalarni egallashiga olib keladi. Siyosiy elitologiyaning texnologik determinizm elitizmda texnologik determinizm asosan texnologiya va texnikaning rivojlanish darajasini ijtimoiy hayotning asosiy omili deb bilishadi. Texnologik determinizm XX asrning 50-70-yillari oxirlarida paydo bo'lgan bir nechta qo'shimcha nazariyalarni birlashtiradi.² Rivojlangan kapitalistik davlatlarda ilmiy-texnikaviy inqilob yutuqlari natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy o'zgarishlarni aks ettiradi. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Yagona sanoat jamiyati nazariyasi (R.Aron);
2. Iqtisodiy o'sish bosqichlari nazariyasi (V.Rostou);
3. Yangi sanoat jamiyati (J.Galbreyt);
4. Postindustrial jamiyat nazariyasi (Daniel Bell);
5. Superindustrial jamiyat nazariyasi (A.Toffler).³

Texnologik determinizm – falsafiy va sotsiologik tushunchalar va tadqiqotlardagi nazariy va uslubiy munosabat bo'lib, ijtimoiy taraqqiyotni tushunishni texnologiya taraqqiyotda qisqartirish bo'lib, u so'zlovchilarning borligi, tafakkuri va tiliga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.⁴ U 1920 – yillarda fan va texnika taraqqiyotidagi jadal muvaffaqiyatlar va ularni ishlab chiqarishni rivojlantirishda ommaviy qo'llash samaradorligi oshishi munosabati bilan vujudga keldi. Siyosiy elitologiya sohasida texno-deterministik asoslarning siyosiy jarayonlar dinamikasida qanday o'zgarishlarga olib kelishi va bunda siyosiy institutlar pozitsiyasi mazkur jarayonning dolzarbligini oshiradi.⁵ Birgina Siyosiy partiyalar yoki jamoat birlashmalari va hokimyatning parlament, hukumat tuzilishlari o'rtasidagi konvergentsial aloqalar yoki korporatsiyalar va hozirgi zamon universitetlari qanday darajada bunday bosqichlarda rol o'ynaydi. Meritokratiyaning ilmiy-texnikaviy inqilobda qanday pozitsiyalarga ega ekanligi ham muhim masalalardan biri hisoblanadi. Zero, meritokratik jarayonlarning samaradorlik ko'rsatkichlari va siyosiy jarayonlardagi roli ham dolzarb ilmiy tadqiqotlardan biridir.⁶ XX asr N.A.Berdyayev va J.Ortega Gasset tomonidan “ omma qo'zg'oloni asri” bo'lsa, XXI asr katta ehtimol bilan “bilim asriga” aylanadi degan g'oyalarni ilgari suradilar. Bu bir tomondan Meritokratiya qadriyatiga ishora hisoblanadi. Meritokratiya – bu davlat boshqaruvi, siyosiy hokimyat va siyosiy jarayonlarda yuksak qobiliyat, kuchli bilim, yuqori intellekt darajasiga ega bo'lgan shaxslar, guruhlar, uyushmalar, birlashmalar tushiniladi.⁷

Tadqiqot usuli va metodologiya. Postindustrial jamiyat nazariyasida siyosiy jarayonlar uchta asosiy bosqichni bosib o'tadi:

I. Sanoatdan oldingi (mazkur bosqichda qishloq xo'jaligi iqtisodiy faoliyatning “birlamchi sohasi” hisoblanadi va siyosiy institutlarning siyosiy jarayonlardagi faolligini yuqori bo'lmaydi. Bu davrda asosan, cherkov va armiya siyosiy – ijtimoiy institut funksiyasini bajargan);

² Г.К.Ашин, А.В.Понедельков, В.Г.Игнатов, А.М.Старостин. Основы политической элитологии: Учебное пособие. Рекомендовано Министерством общего и профессионального образования Российской Федерации в качестве учебного пособия для студентов высших учебных заведений. – М.: 1999 – 74с.

³ К.М.Мирзаахмедов. Siyosiy elita va yetakchilik: Ma'ruza. 2023. 3-4b.

⁴ К.М.Мирзаахмедов. Siyosiy jarayonlarining tizimli tahlili: Ma'ruza. 2024. 7-8b.

⁵ Золдотухин. И.Н. Партийки фактор в политической системе США и Республики Филиппин // Ойкумена. – 2008. - №3. – С.47-49.

⁶ М.Қирғ'избойев. Siyosatshunoslik: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. T.: “Sharq”, 2024. – 235-237b.

⁷ A.Shipman, J.Edmunds, Brayan. S.Turner. The new power elite: inequality, politics and greed. USA: ANTHEM press. 2018 – 89-91p.

II. Sanoatlashgan (mazkur bosqichda sanoat “ikkilamchi soha” bo‘ladi va siyosiy jarayonlarda siyosiy institutlar faollashgan holda pozitsiyalarini egallaydi. Korporatsiyalar, kompaniyalar, tashkiliy-tuzilmaviy organlar, davlat boshqaruvidagi yetakchi aktorlar siyosiy – ijtimoiy institut mavqeiga ega bo‘lgan);

III. Sanoatdan keyingi (mazkur bosqichni Z.Bjenizskiy “Texnotronik”, A.Toffler esa “Superindustrial” jamiyat deb ataydi. Bu sanoat bosqichida universitetlar ijtimoiy-siyosiy institut sifatida ko‘rilgan).⁸

Eng muhim qarorlarni siyosatchilar elitasi qabul qiladi, lekin ular ziyolilar elitesining tadqiqoti va tahliliga asoslanadi; qaror qabul qilish borgan sari texnik tus oladi. Iste’dodlilarni tarbiyalash, intellektual institutlarni yoyish jamiyatning asosiy masalasiga aylandi. Intellektual va ilmiy doiralar nafaqat eng iste’dodli kishilarni o‘ziga jalb qiladi, balki pirovardida insonning obro‘-e’tiborini, jamiyatdagi mavqeini ham belgilab beradi.

Postindustrial jamiyatda asosiy metodologiya bu meritokratiyaning texnologik tadqiqotlarining qo‘llanishi hisoblanadi. Meritokratiya Xitoy, AQSH, Yaponiya, Janubiy Korea, Germaniya, Fransiya kabi bir qator davlatlarda qo‘llanilib kelinmoqda, shu bilan birgalikda hozirda postindustrial jamiyatga o‘tish bosqichida bo‘lgan davlatlar ham bu amaliyotlarni qo‘llash istiqbollari ustida ishlashmoqdalar. Umuman olganda, meritokratiya elitologiya sohasida muhim domenatlardan biri hisoblanadi.⁹

Siyosiy jarayonlar dinamikasidagi vektorlar o‘qi A nuqtadan B nuqtaga o‘tishi uchun muayyan asoslar bo‘lishi talab etiladi yoki bu borada vositalar roli kattadir. Ana shunday asos va vositalardan biri sifatida postindustrial jamiyatning taraqqiyoti hisoblanadi.¹⁰

Muhokama va natijalar. Zamonaviy elitologiyada texnologik determinizmning o‘rni katta hisoblanadi. Texnologik determinizm - reduksionistik nazariya bo‘lib, jamiyat texnologiyasi o‘zining ichki samaradorlik mantig‘iga amal qilgan holda, ijtimoiy tuzilma va madaniy qadriyatlarining rivojlanishini belgilab beradi, deb faraz qiladi. Texnologik determinizm tarafdorlari jamiyatdagi ijtimoiy – siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlarning asosiy hal qiluvchi omili texnologiya va texnologik ishlab chiqarish tizimidagi ko‘p yoki kamroq katta siljishlar deb hisoblashadi. Ular uchun “texnologiya” so‘zi “mashinalar va asboblarni emas, balki mavjud bo‘lgan hamma narsani idrok etishimizni boshqaradigan dunyo haqida tegishli g‘oyalarni” anglatadi. Bu atama muallifi amerikalik sotsiolog Torshteyn Veblen (1857-1929) hisoblanadi. Veblen asarlarida bu munosabat boshqaruvchilar nafaqat iqtisodiyotni rivojlantirishda, balki siyosat sohasida boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ham hal qiluvchi rol o‘ynaydigan doktrinada amalga oshiriladi, bu go‘ya sifatida ham tanilgan. Veblenning “Boshqaruv inqilobi” asarida “mashina antropomorfik fikrlash odatlarini o‘zgartiradi” deb ta’kidlaydi. Fransuz sotsiologi R.Aronning “Yangi sanoat jamiyati” nazariyasi 1956-1959-yillarda Sorbonnada qilgan ma’ruzalarida shakllantirilgan. Aron O.Kont qarashlariga murojat qilib, “Sanoatning rivojlanishi yaxlit sanoat jamiyatining shakllanishiga olib keladi, uning turlari sotsialistik va kapitalistik ijtimoiy tizimlardir” deya ta’kidlaydi. Bu jamiyat bir xil iqtisodiy-texnik ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

- I. Mehnat taqsimotining murakkab tizimi;

⁸ Michael Hartmann. The sociology of elites. B.: Routledge Taylor&Francis Group. 17-19p.

⁹ C. Wright Mills. The Power elite. Washington 1956. 131-135p.

¹⁰ K.M.Mirzaaxmedov. Davlat boshqaruv asoslari: Ma’ruza. 2022.-45b.

2. Ishlab chiqarish va boshqaruvni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishni nazarda tutuvchi sanoatlashtirishni rivojlantirish;
3. Bozor uchun tovarlarni ommaviy ishlab chiqarish;
4. Ilmiy-texnik inqilob;
5. Keng tarqalgan urbanizatsiya;
6. Ijtimoiy harakatchanlikning yuqori darajasi.¹¹

Aronning fikricha, yirik sanoatning rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalariga ta'sir qiladi. Shu bilan birga, u sotsialistik va kapitalistik mamlakatlar o'rtasidagi ijtimoiy va siyosiy tizimdagi jiddiy farqlarni istisno qilmaydi. XX asrning 70-yillarida yuqoridagi tushunchalar "Postindustrial jamiyat" nazariyasida ishlab chiqilgan. Buni amerikalik sotsiologi Daniel Bell tomonidan "Postindustrial jamiyatning kelishi"(1973) va "Kapitalizmning madaniy qarama-qarshiliklari" (1976) kitoblarida ishlab chiqilgan. Bu nazariyaning asosiy qoidalarini amerikalik va fransuz sotsiologlari va suvosatshunoslari G.Kan, Z.Bjezinskiy, A.To'ffler, Turen, J.Furastye va boshqalar ishlab chiqqan.

1. Postindustrial jamiyat nazariyasi jahonning yetakchi kapitalistik mamlakatlari rivojlanishining hozirgi bosqichini aks ettiradi;
2. Bu yerda ilmiy-texnikaviy inqilob yutuqlari yuqori samarali bozor iqtisodiyotini yaratishga;
3. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirishga va kompyuter texnologiyalarining axborotning keng rivojlanishiga yordam berishini aytish mumkin. (Shu munosabat bilan postindustrial jamiyat axborot jamiyati deb ham ataladi.)¹²

Siyosiy jarayonlarda ilmiy texnikaviy hamjamiyatning rolini ideallashtirib, mutlaqlashtirib bormoqda, postindustrializm nazariyotchilari axborot jamiyatida tuzilma tubdan o'zgarayotganlarini ta'kidlaydilar. Jamiyatning sinfiy bo'linishi kasbiy bo'linish bilan almashtirilmoqda.¹³

D.Bell hozirgi zamonaviy siyosiy jarayonlardagi siyosiy elita masalasida "Hukmron elita yirik mulkdorlar emas, balki yuqori darajadagi bilim va ta'limga ega odamlardir. Ta'lim ijtimoiy mavqening hal qiluvchi omiliga aylanib bormoqda, universitetlar esa mutaxassislar tayyorlashning ilmiy markazlari sifatida eng muhim ijtimoiy institutga aylanmoqda. Postindustrializm – bu olimlar inqilobi" degan qarashlari asosiy muhokamada qolmoqda.¹⁴

Bunday jamiyatda elita ijtimoiy munosabatlar funksiyasi sifatida, jamiyatning boshqaruvga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish sifatida ko'riladi.

Bunday ehtiyoj bor, ammo savol, albatta, elita hokimiyatiga kelishi kerakmi? Elitistlar boshqaruvning haqiqiy ehtiyojini ko'rsatib, hukmron eksplutator sinf tomonidan ushbu funksiyani egallab olish, uni ushbu sinf vakillarining tor qatlami uchun imtiyozga aylantirish bilan bog'liq bo'lgan boshqaruvning maxsus shaklini gipertrofiya qilishni istisno qilib bo'lmaydi.

Elitistlar o'z pozitsiyalarini asoslashda odatda ijtimoiy tashkilot ierarxiya va jamiyat (yoki balki hukmron sinf?) manfaatlariga mos keladigan elitani keltirib chiqarishni ta'kidlaydilar. Elitistlar jamiyatda mehnat taqsimoti zaruratidan kelib chiqadi va bu

¹¹ H. Best, J.Higley. The Plagrave handbook of political elites. 141-149p

¹² J.Abbink, T.Salverda. The anthropology of elites: power, culture, and the complexities of distinction. USA: Copyright. 2013 – 83-84 p.

¹³ X.T.Odilqoriyev, D.X.Razzoqov. Siyosatshunoslik. T.: "O'qituvchi"2008. 159b.

¹⁴ Biturayev O.B. Siyosatshunoslikka kirish (o'quv qo'llanma) T.: "Barkamol fayz media", 2017. 149b.

odamlarning tengsiz qobiliyatlari bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Maks Veber boshqaruvchilar va boshqariladiganlar o'rtasidagi "ideal tashkilot"ning funksional dualizmini ham qayd etadi.

Byurokratik elitaning kuchi, Veberning fikricha, kompetentsiyaga asoslanadi. Biroq, darhol bir savol tug'iladi: Veberning izdoshlari bu masalada ilmiy tadqiqot olib borib, Veber hokimiyatning ikki turini aralashtirib yuboradimi? – Biri vakolatga, ikkinchisi muassasadagi rasmiy pozitsiyaga asoslanganmi? degan savolga quyidagicha yondashadilar:

Bu msaladagi diskursda J.Bernhem, A.Fish, K,Boulding va ularning izdoshlari ilmiy ishlarni olib borishgan. XIX asrda tadbirkorlik tashabbusi birinchi o'ringa chiqqan bo'lsa, XX asrda tashkilotchilik qobiliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi Bernhem zamonaviy ishlab chiqarish tabiatining o'zgarishi va boshqaruv funksiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, uni amalga oshiruvchi jamiyatning elitesiga aylantirganini yozgan.

Texnologik elitism o'zining qariyb asrlik tarixi davomida sezilarli darajada rivojlandi. Uning birinchi shakli texnokratik nazariyalardir.¹⁵

1-Nazariyaning asoschisi T.Veblen zamonaviy ishlab chiqarishda muhandislik-texnik ziyolilar asosiy rol o'ynaydi, ular jamiyatning elitasi bo'lishi kerak, deb hiosblagan. Bu qarashlarida utopiklik tamg'asi bor edi; 1929-1932-yillardagi "Buyuk depressiya" yillarida qo'rqib ketgan burjuaziya Veblen, Skott va ularning tarafdorlarini "Pushti" deb tasniflasdi, chunki ular kapitalistlarni "xavf" tahdidi ostida majburlash g'oyasi bilan yugurishdi, "muhandislarining ish tashlashi" hokimiyat jilovini ularga topshirdi.¹⁶

2-Determinizm tarafdorlarining ikkinchi avlodiga J.Bernhen boshchilik qildi, u o'zining "Boshqaruv inqilobi" nomli dasturiy asarida kapitalizm sotsializm emas, balki, "menejerizm" bilan almashtirilishi kerakligini ta'kidladi. Boshqaruv inqilobi hokimiyatga yangi boshqaruv elitesini olib keldi. Agar Veblen muhandislar va texnikalarni tadbirkorlarni chetga surib, sanoat va umuman ijtimoiy hayotni nazorat qilishga chaqirgan bo'lsa, chunki ular sanoatning maqsadga muvofiqligi nuqtai nazaridan harakat qilishadi, bu jamoat manfaati bilan mos keladi, u holda berhem oddiy muhandis va texniklarni tasniflashni o'rinsiz deb hiosblaydi, chunki u "malakali ijrochilar" direktorlar, boshqaruv raislar, menejerlar elitasi orasidan eng yaxshi saralanganlarini olishni ilgari suradi. Bernhem "yangi elita" qatoriga davlat siyosiy institutlari rahbarlarini ham kiritadi. Uning yozishicha boshqaruvchi jamiyatda barcha sohalarida siyosiylashuv mavjud. Kapitalistik jamiyatda siyosat va iqtisod ijtimoiy hayotning alohida sohaları, "boshqaruvchi" jamiyatda bu farq, shuningdek, siyosatchilar va "sanoat sardorlari" o'rtasidagi chegaralar yo'qoladi, mejerlar jamiyatni boshqaradi. Agar kapitalistlar davlatni bilvosita, boshqaruvchilar esa bevosita boshqaradi. Agar kapitalistik jamiyatda hokimiyat parlamentda to'plangan bo'lsa boshqaruvchi jamiyatda u ma'muriy organlarda to'plangan. Bernhemning bu nazariyasiga A.Byorli, D.Elesko qarshi chiqqanlar. Ular bu yondashuvni "utopik" va "ma'nosiz" deb ta'kidlashadi. Chunki ular "malakali elita"ga qarshi chiqqan. G'arblik futurologlar D.Bell, G.Kan. A.Vinnerlar ijtimoiy-texnik inqilob bu ijtimoiy guruhlarni qanday qilib kuch va ta'sir cho'qqisiga ko'tarishi haqida ko'p yozganlar. Ular kelajakda hukmron elitaning eng muhim asosi sifatida "yangi elita" "g'arb ta'lim muassasalari" mahsuli ekanligida deb

¹⁵ Вебер М. Избранные произведения. М., 1990. – С. 550-561.

¹⁶ К.М.Мирзаахмедов. Siyosiy elita va yetakchilik: Ma'ruza. 2023. 11-12b.

hisoblaydilar. Neotexnokratiya nazariyotchilari ilmiy-texnikaviy inqilobning rivojlanishi intellektual elita hokimiyatining o'rnatilishiga olib kelishini ta'kidlaydilar.¹⁷

3-Zamonaviy neotexnokratik nazariyalarda elita muammosi markaziy o'rinni egallaydi. J.Gelbreytning fikricha, zamonaviy texnologiyalar muqarrar ravishda elitani keltirib chiqaradi, bu esa menejerlar boshchiligidagi mutaxassislar ierarxiyasidan tashkil topgan "texnostrukturadir." Bundan tashqari, texnostruktura bu shaxslar yig'indisi emas balki, muassasalardir.¹⁸

Ushbu fonda postindustrial jamiyatning birinchi qatoriga chiqayotgan imiy elitaning ahamiyati ortib bormoqda. U hukmron elitada ustunlik qilgan shaxslar, tadbirkorlar va ishbilarmonlarning bo'lgan bo'lsa ularning o'rnini matematiklar, iqtisodchilar, sotsiologlar va kompyuter mutaxassislari egallaydi.¹⁹

Mazkur postindustrial jamiyat o'zi bilan bir qator tamoyoillarni olib kelmoqda. Meritokratiya tamoyilining davlat boshqaruvi, siyosiy hokimiyat, siyosiy jarayonlarda o'zinig asosiy samaradorligini namoyon etadi. Leshning fikricha, "elitalar qo'zg'oloni" da asosiy ijtimoiy-siyosiy ko'rinish emas, balki, madaniy va gumanistik xarakterning shakllanishi paydo bo'lishini ilgari suradi. Shu o'rinda Jovanni Sartorining "Demokratik elitizm" nazariyasini ilgari suradi²⁰. Ya'ni meritokratiya elitalar o'rtasidagi raqobatni shakllantirishda muhim yo'llarni ochib beradi. Bu yaxlit demokratiya ko'rsatkichlarini mustahkamlashi va bu o'z navbatida elita doiralarning kengayishini nazarda tutadi²¹.

Xulosa. So'ngi chorak asrda texnologik determinizm nuqtai nazaridan elitani oqlashdagi urg'u o'zgarganligini ta'kidlaymiz. Ushbu o'zgarishlarning sababi ilmiy-texnikaviy inqilobning ijtimoiy oqibatlarini bo'lib, jamiyatning turli tomonlari boshqarishda ishtirok etadigan byurokratiya va ziyolilarning ma'lum qatlamlari, shu jumladan gumanitar qatlamlarning ta'siri va mavqei oshirishga olib kelmoqda.²² Ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning subyektivi jamiyat ya'ni omma emas balki ilmiy-texnika taraqqiyotining tashuvchisi elitadir.

Demak, siyosiy elitologiya borasida shu ilmiy asosni keltirish mumkinki, texnologik ilmiy texnika taraqqiyoti, meritokratiya, postindustrial jamiyatda elitalarning pozitsiyalari va ular o'rtasidagi raqobat muhiti davlat boshqaruvi, siyosiy hokimiyat va siyosiy jarayonlarda samaradorlik va sifatlilikka xizmat qiladi.

Zamon talabi bilan elita ilgargidek tor konsentrik doiralardan, keng konsentrik doiralarga o'tishi va jamiyatning elitalashuv jarayonlardagi adaptatsiyasi siyosiy sohadagi modernizatsion bosqichni shakllanyotganidan dalolat beradi.

Zamonaviy siyosiy fanlardagi ilmiy tadqiqotlarni qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, o'zgaruvchan va rivojlanuvchan tendensiyalarning aniq va maqsadli harakatlari siyosiy hokimiyat, davlat hokimiyati, siyosiy institutlar va siyosiy jarayonlarning natijalarini bundan oldingi differensiyalarida konfiguratsiya asoslari tubdan farq qiladi.²³

¹⁷ M.Dogan. Elite configurations at the apex of power. Brill. Leiden.Boston. 2003. 139-145p

¹⁸ J.P.Dalos. The sociology of elite distinction: from theoretical to comparative. CNRS University of Oxford & University of Oslo. 2010. 67-68p.

¹⁹ Duverger M. Political Parties. Their Organization and Activity in Modern State. N.Y., 1954. – P. 52.

²⁰ Острогорский М.Я. Демократия и политические партии. Т.2. – Москва, 1930. – 250 с.

²¹ А.Ю.Другова, Н.П.Малетина, О.В.Новаковой. Элиты стран востока: [сборник статей]/ Моск.гос.ун-тим. М.В.Ломоносова, Ин-т стран Азии и Африки, Центр изучения совр. Проблем Юго-Восточной Азии иАТР. – М.: Ключ-С, 2011. – 16-23с.

²² У.Х.Бо'таев. Siyosatshunoslik[Matn]: darslik, T.: Info capital Books, 2024. – 159b.

²³ Comparative Politics Today: A World View/ ed. by Almond G., Power G, New York, 1996. – P. – 13-14.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1) Ашмн.Г.К. Элитология: история, теория, современность: монография. Моск.гос. ин-междунар. Отношений (ун-т) МИД России, каф. Философи. – М.: МГИМО – Университет, 2010. – 93-94с.
- 2) Г.К.Ашин, А.В.Понеделков, В.Г.Игнатов, А.М.Старостин. Основы политической элитологии: Учебное пособие. Рекомендовано Министерством общего и профессионального образования Российской Федерации в качестве учебного пособия для студентов высших учебных заведений. – М.: 1999 – 51с.
- 3) К.М.Mirzaaxmedov. Siyosiy elita va yetakchilik: Ma'ruza. 2023. 3-4, 11-12b.
- 4) К.М.Mirzaaxmedov. Siyosiy jarayonlarining tizimli tahlili: Ma'ruza. 2024. 7-8b.
- 5) Золдотухин. И.Н. Партийки фактор в политическом системе США и Республики Филиппин // Ойкумена. – 2008. - №3. – С.47-49.
- 6) M.Qirg'izboyev. Siyosatshunoslik: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. T.: "Sharq", 2024. – 202b.
- 7) A.Shipman, J.Edmunds, Brayan. STurner. The new power elite: inequality, politics and greed. USA: ANTHEM press. 2018 – 89-91p.
- 8) Michael Hartmann. The sociology of elites. B.: Routledge Taylor&Fransic Group. 31-32p.
- 9) C. Wright Mills. The Power elite. Washington 1956. 131-135p.
- 10) К.М.Mirzaaxmedov. Davlat boshqaruv asoslari: Ma'ruza. 2022.-4-5b.
- 11) H. Best, J.Higley. The Plagrave handbook of political elites. 141-149p
- 12) J.Abbink, T.Salverda. The anthropology of elites: power, culture, and the complexities of distinction. USA: Copyright. 2013 – 83-84 p.
- 13) Biturayev O.B. Siyosatshunoslikka kirish (o'quv qo'llanma) T.: "Barkamol fayz media", 2017. 149b
- 14) X.T.Odilqoriyev, D.X.Razzoqov. Siyosatshunoslik. T.: "O'qituvchi"2008. 159b.
- 15) Вебер М. Избранные произведения. М., 1990. – С. 550-561.
- 16) M.Dogan. Elite configurations at the apex of power. Brill. Leiden.Boston. 2003. 139-145p
- 17) J.P.Dalos. The sociology of elite distinction: from theoretical to comparative. CNRS University of Oxford & University of Oslo. 2010. 67-68p.
- 18) Duverger M. Political Parties. Their Organization and Activity in Modern State. N.Y., 1954. – P. 52.
- 19) Острогорский М.Я. Демократия и политические партии. Т.2. – Москва, 1930. – 254 с.
- 20) А.Ю.Другова, Н.П.Малетина, О.В.Новаковой. Элиты стран востока: [сборник статей]/ Моск.гос.ун-тим. М.В.Ломоносова, Ин-т стран Азии и Африки, Центр изучения совр. Проблем Юго-Восточной Азии иАТР. – М.: Ключ-С, 2011. – 16-23с.
- 21) U.X.Bo'tayev. Siyosatshunoslik[Matn]: darslik, T.: Info capital Books, 2024. – 159b.



22) Comparative Politics Today: A World View/ ed. by Almond G., Power G, New York, 1996. – P. – 13-14.